

ERGASH GAPNI BOSH GAPGA BOG`LOVCHI VOSITALAR

Asrorova Mo`mina –

Jizzax shahridagi 1-umumta`lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu dars ishlanmasi “Dars muqaddas” asosida ishlab chiqilgan bo`lib, unda yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanilgan. Quyidagi ishlanma bo`yicha darsda qo`llaniladigan “molekulalar tortishuvi”, “o`ylab top” o`yinlari va “klaster” usuli, didaktik materiallar o`quvchilarning tezkorligini, kreativligini va kognitivligini, oshiradi.

Kalit so`zlari. Ergash gap, bosh gap, bog`lovchi vositalar, ergashtiruvchi bog`lovchilar, ko`makchili qurilmalar, nisbiy so`zlar, “deb” so`zi, shart mayli vositasi, yuklamalar, “molekulalar tortishuvi”

Аннотации

Этот урок основан на «Священном уроке», в котором эффективно используются новые педагогические технологии. Следующие разработки, такие как «молекулярное притяжение», «угадайка» и «кластерный» метод, используемые на уроке, дидактические материалы повышают скорость, креативность и познание учащихся.

Ключевые слова. Наречия, предлоги, союзы, союзы, вспомогательные приемы, относительные местоимения, слово «деб», условное, предлоги, «молекулярное притяжение»

Annotation

This lesson is based on the "Holy Lesson", which effectively uses new pedagogical technologies. The following developments, such as "molecular attraction", "guess" games and "cluster" method, used in the lesson, didactic materials increase the speed, creativity and cognition of students.

Keywords. Adverbs, prepositions, conjunctions, conjunctions, auxiliary devices, relative pronouns, the word "deb", the conditional, prepositions, "molecular attraction"

Nazarda tutilgan muammo:

- Maktab o`quvchilarining og`zaki va yozma nutq kompetensiyasining shakllanmaganligi;
- o`quvchilarning so`zlashuv jarayonida qo`shma gap tuzilmalaridan samarali foydalana olmasligi;
- duch kelingan masalani hal qilishda o`quvchilarda kriptivlikning yetishmasligi.

Qo`yilgan maqsad:

- ✗ Ta`lim samaradorligini oshirish;
- ✗ O`quvchilarning og`zaki va yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish;
- ✗ O`quvchilarni tezkor va kreativ fikrlashga o`rgatish;

- ✘ umumta'lim maktablarida o'tiladigan har bir fan va darslar borasidagi bilim, ko'nikma va malakalarning hayotiy turmushda kerakligiga o'quvchilarni ishontira olish.

Kutiladigan natija:

- ✘ o'quvchilarning ona tili darslaridan olgan bilim va ko'nikmalari asosida yetarli darajada kompetensiyaviylikka ega bo'lishi.
- ✘ o'quvchilarda kreativ fikrlash asosidagi nutq odobining shakllanishi.

Ko'zda tutilgan muammoni hal etish yechimini 9-sinfda o'tiladigan 21-darsda o'tiladigan "Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar" mavzusi asosida ko'rib chiqamiz.

9- sinflar uchun 21-dars

Mavzu: Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar.

Dars shiori: Tariximsan, taqdirimsan, kelajagimsan – ona tilim!

Muallim – millatning yuzi, Vatan istiqbolining asl bunyodkoridir.

Islom Karimov

Ona tilimiz – milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog'idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir.

Shavkat Mirziyoyev

Darsning maqsadi:

- ta'limiy:** o'quvchilarga Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar hamda ularning ishlatilishi haqida ma'lumot berish;
- tarbiyaviy:** o'quvchilar ongida "Kamil inson" g'oyasini shakllantirish;
- rivojlantiruvchi:** o'quvchilarda mustaqil, ijodiy fikrlash va til hodisalarini qiyoslash asosida nazariy xulosalar chiqarish ko'nikmasini, og'zaki va yozma nutq malakasini rivojlantirish.

Darsning usuli: DTS va yangi pedagogik texnologiya asosida interfaol usul

Darsning turi: yangi BKMLarni shakllantiruvchi

Darsning jihozi: 9-sinf ona tili darsligi, tarqatma materiallar, elektron darslik (kompyuter videoproyektori) rag'bat kartochkalari, ko'rsatmali material

1.Mavzuning texnologik xaritasi va konspekti

| |
|--|
| Fan: Ona tili. Sinf: 9-sinf |
| Mavzu: Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar. |
| Tayanch so'zlar: ergash gap, bosh gap bog'lovchi vositalar. |
| Mavzuning qisqacha ta'rifi (DTS ga muvofiq) |
| O'quvchilarga ergash gap, bosh gap va ular o'rtasidagi bog'lovchi vositalarning ishlatilishi haqida ma'lumot berish. |
| O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi |

| | | | |
|---|-------------------|---|------|
| <p>Metod: “Molekular tortishuvi”, “O`ylab toping”, og`zaki bayon qilish, tushuntirish.</p> <p>Forma: savol-javob, individual ishlash, guruxlar bilan ishlash</p> <p>Vositalar: kompyuter qurilmasi, ko`rgazmali qurollar, tarqatma materiallar</p> <p>Nazorat: Og`zaki nazorat, savol-javob orqali</p> <p>Baholash: rag`batlantirish, kartochnalardan foydalanish</p> | | | |
| <p>Darsning maqsad va vazifalari</p> | | | |
| <p>Ta`limiy: o`quvchilarga ergash gap, bosh gap va ular o`rtasidagi bog`lovchi vositalarning ishlatilishi ishlatilishi haqida ma`lumot berish;</p> <p>Tarbiyaviy: o`quvchilar ongida “Millatlararo totuvlik” g`oyasini shakllantirish;</p> <p>Rivojlantiruvchi: o`quvchilarda mustaqil, ijodiy fikrlash va til hodisalarini qiyoslash asosida nazariy xulosalar chiqarish ko`nikmasini,og`zaki va yozma nutq malakasini hamda eslab qolish qobiliyatini rivojlantirish.</p> | | <p>Ta`limiy savol: 1.Ergash gapli qo`shma gap deganda nimani tushunasiz?</p> <p>2. Bosh va ergash gap o`rtasida qanday bog`lovchi vositalar qo`llanadi?</p> <p>Tarbiyaviy savol: Vatan ravnaqi, taraqqiy topishi nimalarga bog`liq?</p> <p>Rivojlantiruvchi savol: Ergashtiruvchi bog`lovchilar va ular o`rnida qo`llanuvchi vositalar deganda nimani tushunasiz? Mmisollar keltira olasizmi?</p> | |
| <p>Kutilayotgan natija</p> | | | |
| <p>Dars yakunida o`quvchi biladi (Bilim) ergash gap, bosh gap va ular o`rtasidagi bog`lovchi vositalarning ishlatilishi haqida bilimlarni egallashi</p> | | <p>Qaysi savollar beriladi:</p> <p>1.Qanday gap bosh gap, qanday gap ergash gap deyiladi va ular o`rtasida qanday bog`lovchi vositalar qo`llanadi?</p> | |
| <p>Dars yakunida o`quvchi tushunadi (Ko`nikma) O`quvchilar ergash gap, bosh gap va ular o`rtasidagi bog`lovchi vositalarning ishlatilishi haqida o`z fikrlarini bildira olishlari kerak.</p> | | <p>Qaysi savollar beriladi:</p> <p>Ergash gap bosh gapga qanday bog`lovchi vositalar bilan bog`lanadi?</p> <p>Qaysi bog`lovchilar bosh gap tarkibida, qaysi bog`lovchilar ergash gap tarkibida keladi?</p> | |
| <p>Dars yakunida o`quvchi bajara oladi (Malaka) O`quvchilar “Ergashgan qo`shma gap qismlari” va “Ergash gap va bosh gap o`rtasidagi bog`lovchi vositalar”ning turlari haqidagi tushunchalarni egallashi, ta`riflab bera olishlari kerak..</p> | | <p>Qaysi savollar beriladi:</p> <p>Ergashgan qo`shma gapga misollar keltiring.</p> <p>Bosh va ergash gaplarga ajratib, ular o`rtasidagi bog`lovchi vositalarning turini ayting.</p> | |
| <p>Dars jarayoni va uning bosqichlari</p> | | | |
| Ishning nomi | Bajariladigan ish | Metod | Vaqt |

| | mazmuni | | |
|---|--|---|--|
| 1-bosqich: Tashkiliy qism: | 1. Salomlashish 2. Davomatni aniqlash. 3. Darsga hozirlash. | Savol- javob | 2 daqiqa |
| 2-bosqich: O`tilgan mavzuni takrorlash. | O`tilgan mavzu bo`yicha savol-javob bilan o`quvchilarning shu mavzuga tayyorligi va yana nimalarni bilishlari lozimligi haqidagi ehtiyojlari aniqlanadi. | Tarqatma materiallar yordamida og`zaki savol-javob „Molekulalar tortishuvi“ usuli | 10 daqiqa |
| 3-bosqich: Yangi mavzuning bayoni: | 1.Guruhlarda topshiriqlar bo`yicha taqdimot 2.Ko`rgazmalilik asosida o`qituvchining mavzu bo`yicha ma`lumoti 3.O`qituvchining darsni xulosalashi | “Kim chaqqon?” AKT dan foydalanish Qo`shimcha ma`lumot asosida | 6 daqiqa 8 daqiqa 2 daqiqa |
| 4-bosqich: Mustahkamlash. | Guruhlar bilan musobaqa tashkil qilish | “O`ylab toping” | 7 daqiqa |
| 5-bosqich: Baholash. | Shartlar asosida guruhlar erishgan natijalarni tahlil qilish | Guruhlarni rag`bat kartochkalari asosida rag`batlantirish. | 3 daqiqa |
| 6-bosqich: (Uyga vazifa) Dars yakuni. | 68-mashq. Darslikning 30-sahifasida berilgan rasm asosida matn tuzish | Og`zaki topshiriq | 2 daqiqa |

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism:

- 1) Salomlashish. Davomatni aniqlash.
- 2) Sinfni va o`quvchilarni darsga hozirlash.

O`quvchilar Piramida shaklida 2 guruhga bo`linadilar. Dars jarayoni 3 shart asosida olib boriladi:1-shrt “O`tilgan mavzuni takrorlash”, 2-shart “Yangi mavzu bayoni”, 3-shart “Mustahkamlash”.


2. Otilgan mavzuni takrorlash.

O'qituvchi tomonidan guruhlarga bo'lingan holda har bir guruhdan beshtadan o'quvchi doskaga chiqadi. O'tilgan mavzu- "Bosh va ergash gap" mavzusi kartochkalar yordamida og'zaki savol-javob usulida so'raladi. Har bir kartochkaning ichida biror so'z yashiringan bo'ladi. O'quvchilar o'sha so'zlarni yig'ib to'g'ri joylashtirishlari lozim. To'g'ri javob uchun "RAG'BAT", noto'g'ri javob uchun esa "JARIMA" kartochkasi beriladi.


Savollar:



Yashirin so'zlar



Har ikki guruhda yig'ilgan rag'bat va jarima kartochkalari hisoblab chiqiladi. Jarima olgan o'quvchilarga mavzuga oid "Krossvord" beriladi Ular darsning oxirigacha krossvordlarni to'ldirib berishadi va baholanishadi.



G'olib bo'lgan o'quvchilar doskadagi so'zlarni to'g'ri joylashtirib, yangi mavzuni ochib beradilar.


3. Yangi mavzu bayoni.

Mavzu electron slaydlar yordamida tushuntirib beriladi.

Mavzu: Ergash gapni bog'lovchi vositalar

1-topshiriq.
Topshiriqni guruhlar asosida doskani ikki qismga ajratgan holda bajaramiz. Qaysi guruh shartni birinchi

bo'lib bajarsa, bitta "rag'bat" kartochkasi beriladi.
Quyidagi qo'shma gap qolipida gaplar tuzing.



2-topshiriq.
 Oquvchilar tuzgan gaplardagi ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar og'zaki aniqlanadi.




ERGASHTIRUVCHI BOG'LOVCHILAR:

- sabab munosabati (*chunki, negaki*);

- shart munosabati (*agar, agarda, basharti, mabodo*);

- maqsad munosabati (*toki*);




KO'MAKCHILI QURILMALAR:

Shuning uchun


Shu sababli

Shu tufayli



NISBIY SO'ZLAR:

| | | |
|-----------|-----|------------|
| Kim | -sa | shu |
| Nima | -sa | o'sha |
| Qancha | -s. | shuncha |
| Qanchalik | -sa | shunchalik |
| Qanday | -sa | shunday |
| Qayer | -sa | o'sha yer |



DEB SO'ZI

Maqsad munosabati

- Olim bo'lay deb, ko'p kitob o'qidim.

Sabab munosabati

- Ukamni kutaman deb, maktabdan kech qoldim.



SHART MAYLI QO'SHIMCHASI (-SA)

Shart munosabati

- Yerga mehringni bersang, u senga rizq beradi.

Payt munosabati

- Qaldirg'och pastlab uchsa, yog'ingarchilik bo'ladi.



YUKLAMALAR:

O'xshatish-qiyoslash yuklamalari (go'yo, go'yoki' xuddi)

- Atrofga sokinlik cho'kdi, go'yo butun shahar, butun o'lka oromga berilgan edi.

Ta'kid yuklamasi (-ki)

- Amin bo'ldimki, yaxshilik yrda qolmas ekan..



Mashqlar bilan ishlaymiz

94-mashqni “Donolar” guruhi, 96-mashqni “Zukkolar” guruhi daftarlarda bajarishadi.

Kochiring. Qo’shma gap qismlarini va ular o’rtasidagi bog’lovchi vositalarni aniqlang.

95-mashqni ogzaki muhokama qilamiz.

Qo’shma gap qismlarini va ular o’rtasidagi bog’lovchi vositalarni aniqlang.

3-shart. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Har ikki guruhga bittadan didaktik material beriladi. Undagi test savollarning mazmuniga mantiqiy, shakliga ko’ra qaysi qo’shma gap ekanligi va bog’lovchi vositalarborasidagi aniq javoblarni berishadi.

Har bir to’g’ri javob uchun bittadan “Rag’bat” kartochkasi beriladi.

III. Bosqich: Darsni yakunlash.

Guruhlar yig’gan ballar hisoblanib, g’olib guruh aniqlanadi.

Darsda qatnashgan o’quvchilarning bilimi reyting ball asosida rag’bat kartochkalari bilan rag’batlantiriladi:

5 baho – qizil kartochka;

4 baho – ko’k kartochka;

3 baho – sariq kartochka.

O’qituvchi tomonidan yakuniy fikr aytiladi: **“Komillikka intilish insonni ulug’laydi”**

VI. Bosqich: Uyga vazifa : 98- mashq.

Ushbu darsda qo’lanilgan “O’ylab top” o’yini o’quvchilarda qabul qilingan ma’lumotini to’g’ridan-to’g’ri emas, balki mantiqan anglay olish va unga aniq mulohaza bilan javob qaytarish ko’nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. O’quvchi fikrining kreativligini va kognitivligini oshiradi.

Guruhlar bilan ishlash usuli metodikaning mumtoz usullaridan bo’lib, yoshlarda hamjihatlik, o’zaro hurmat, hamfikrlik, mas’uliyatlilik, kabi sifatlarning shakllantirishda samaralidir.

Jarima olgan o’quvchilarga turli boshqotirmalar berib qayta sinab ko’rish yo’li esa o’quvchilarga yaxshi baho olish imkonini beradi va shu o’quvchida umidni so’ndirmaslik, har qanday imkoniyatdan foydalanib ko’rish ko’nikmasini shakllantiradi.

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, ta’limning sifat va samaradorligini oshirish , o’quvchini mustaqil va mukammal bilim olishi uchun imkoniyat yaratish, uning

dunyoqarashi va tasavvurini kengaytirish, fikrlash qobiliyatini o'stirish o'qituvchining intellektual salohiyatiga, dars jarayonida ilg'or pedagogic texnologiyalardan o'rinli va umumli foydalanishiga bog'liq. Shunday ekan, ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyatli kechishi uchun pedagog o'z kasbining ustasi, fidoyisi bo'lishi kerak. Shu ma'noda bugungi o'qituvchidan yurtimiz kelajagi uchun yangicha fikrlaydigan, ertangi kunga yangicha nigoh bilan qaraydigan, zamon bilan hamnafas komil insonni shakllantirish talab etiladi. Bunday mas'uliyatli vazifani bajarish uchun, avvalo, o'qituvchining o'zi keng va yuksak mahoratga ega bo'lmog'i lozim.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. N.M. Mahmudov, A. Nurmonov, A.Sh. Sobirov 9-sinf ona tili darsligi Toshkent 2019 y.
2. B. Fayzullayev, T. Abdullayev, Sh. Haydarov" Hozirgi o'zbek adabiy tili" Jizzax 2007y.
3. Ф. Жумаева Полисемем лексемалар доирасидаги синоним ва антоним семалар тадқиқи. Монография. – Тошкент: Qaenus Mediya. 2019. - 136 б.